

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-maxsus
son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Алимджанов Бахтиёр Абдихакимович</i> «НА ЭТОМ СЪЕЗДЕ ИДЕЙНОМУ РАЗБРОДУ НУЖНО ПОЛОЖИТЬ КОНЕЦ», ИЛИ КАК СОЮЗ АРХИТЕКТОРОВ УЗБЕКИСТАНА НАЧАЛ МЫСЛИТЬ	11-17
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDA OG'IR SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	18-21
<i>Muminov Azizbek Ziyoviddinovich</i> JIZZAX VILOYATI JOYLASHGAN TABIIY OBYEKT LARNING TARIXIY-GEOGRAFIK TASNIFI VA TURISTIK SALOHİYATI	22-27
<i>Ne'matov Xumoyun To'liqin o'g'li</i> SHOHRUX MIRZO VA USMONIYLAR O'RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR TARIXI	28-33
<i>Khudoyorov Noyibjon Maripjonovich, Ruziboev Samandarbek Sobirjon o'g'li</i> THE POLICY OF DEKULAKIZATION AND CONFISCATION OF PEASANT HOUSEHOLDS IN KAZAKHSTAN, 1929–1933.....	34-43
<i>Шамшетдинова Дилафруза Исмайыловна</i> ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ПРОГРЕСС И ТРАНСФОРМАЦИЯ КУЛИНАРНЫХ ТРАДИЦИЙ В СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ КАРАКАЛПАКСТАНА (1960-1980 ГГ.).....	44-48

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Kasimova Gulyar Axmatovna, Xaydarova Durdona Shuxratjon qizi</i> DAVLAT TIBBIY SUG'URTASI MEXANIZMIDA DORI-DARMON XARIDLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	49-56
<i>Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li</i> AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINI RIVOJLANTIRISHNING KO'P OMILLI EKONOMETRIK MODEL: OLS VA ARDL TAQQOSLASH	57-64

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Tashanov Abduxoliq</i> BUZG'UNCHI G'OYALARINING IJTIMOIIY-SIYOSIY VA AXLOQIY MUAMMOLARI	65-71
<i>Jo'rayev Ahmad Muhammadiyevich</i> TASAVVUF TA'LIMOTIDA DINIY BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIK MASALALARI	72-78
<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUFNING FALSAFIY JIHATLARI XUSUSIDA.....	79-84
<i>Ibraximova Dilorom Saloydinovna</i> RAQAMLI MUHITDA ESTETIK IDROKNING XUSUSIYATLARI.....	85-88
<i>Muxammadiyeva Oliy Narzullayevna</i> OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASH KONSEPSIYASI - OILA VA JAMIYAT IJTIMOIY BARQARORLIGINING MEZONI.....	89-92

<i>Matchanova Barno</i>	
MAFKURA VA MILLIY MAFKURA TUSHUNCHALARI: MAZMUN-MOHİYATI VA IJTIMOİY FUNKSIYALARI.....	93-98
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i>	
BAG'RIKENGLIK G'OYASINING TASAVVUFİY-FALSAFIY TAHLILI (Maxdumi A'zamning "Risolai tanbeh ul-ulamo" asari asosida).....	99-104
<i>Raxmatov Alisher Obidovich</i>	
IJTIMOİY FALSAFADA INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	105-108
<i>O'sarkulov Oybek Murodilovich</i>	
MILLIY IDENTIKLIKNING TRANSFORMATSIYASI VA IJTIMOİY INTEGRATSIYA: O'ZBEKISTONDAGI KOREYS DIASPORASI TAJRIBASI.....	109-115
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i>	
VOLTERNING "BAG'RIKENGLIK HAQIDA" ASARIDA JAN KALASNING QATL ETILISHI VA UNING OQIBATLARINI AKS ETTIRILISHI	116-121
<i>Shadmonova Zebiniso Amrulloevna</i>	
OILA SHAXS KAMOLOTINING ASOSIY IJTIMOİY MUHITI VA JAMIYAT BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA.....	122-126
<i>Idiboyev Abror Jamolovich</i>	
JAMIYAT IJTIMOİY-MA'NAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA - YOSHLAR HUQUQIY TARBIYASINING O'RNI	127-130
<i>Ahmadjonov To'liqinbek Akramjon o'g'li</i>	
RAQAMLI OLAMNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI.....	131-136
<i>Sodiqov Islombek Otabek o'g'li</i>	
RAQAMLI MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	137-141
<i>Abdurahimov Ravshanbek O'ktam o'g'li</i>	
HUQUQIY DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH SHAROITIDA YOSHLAR HUQUQIY ONGINING SHAKLLANISH OMILLARI	142-146
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Duvlaeva Nozigul Xolmuxammat qizi</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK MATNLARIDA STILISTIK TASVIR VOSITALARI	147-151
<i>Зикруллаева Хусния Бахтияровна</i>	
СТРУКТУРА, ПРОИСХОЖДЕНИЕ И НОРМАТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЗАИМСТВОВАННЫХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОМ НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ.....	152-156
<i>Turdiyeva Dilorom Soliyevna</i>	
PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR INCLUSIVE LEARNING	157-162
<i>Eshmuratov Umidjon Temurovich</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI AFORIZMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	163-167
<i>Avlayeva Saida Bozorovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA COVID-19 PANDEMIYASI SHAROITIDA SHAKLLANGAN KISHILAR JAMOALARINI IFODALOVCHI NEOLOGIZMLAR.....	168-172
<i>Ubaydullaeva Dilfuza Akmal qizi</i>	
JURNALISTLARNI TAYYORLASHDA NUTQ MADANIYATI KOMPETENSIYALARINING STRUKTURASI	173-181

<i>Alimova Shaxnoza Yaxshiboyevna</i> ASSOTSIIATIV TAJRIBA PSIXOLINGVISTIKA USULI SIFATIDA	182-187
<i>Xudayberganov Nizomaddin Uktambay o'g'li, Mansurova Shaxinabonu Najmiddin qizi</i> O'ZBEK TILIDA SON VA SIFAT SO'Z TURKUMLARINI POS TEGGLASH ASOSIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH TAMOIYILLARI	188-193
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Абдуллаева Дильдора Эльмуродовна</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СТАРТАП ПРОЕКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН НА ПРИМЕРЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКСЕЛЕРАТОРОВ И ИНКУБАТОРОВ.....	194-198
<i>Fayzullayeva Shaxlo Jumanioz qizi</i> THEORETICAL AND LEGAL ASPECTS OF INCLUSION OF COPYRIGHT OBJECTS IN INTERNATIONAL TRADE.....	199-204
<i>Qalandarov Aminjon Amondullayevich</i> KORPORATSIYALARDA AFFILLANGAN SHAXSLAR INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA TARTIBGA SOLINISHI	205-212
<i>Uralov Sarbon Sardorovich</i> JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIKDA VIDEOKONFERENSALOQA ORQALI TERGOV HARAKATLARINI TARTIBGA SOLISHNING UMUMIY SHARTLARI	213-218
<i>Xolmirzayev Muhsin Shavqiddin o'g'li</i> KRIMINOLOGIK PROGNOZLASHDA ANIQ FANLAR VA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARI YUTUQLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	219-225
<i>Dilboboyev Nozimbek</i> XORIJIY (CHET EL) VA MAHALLIY (MILLIY) INVESTITSIYA TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY TAVSIFI, ULARNING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	226-232
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	233-240
<i>Asadov Shahridin Faxriddin o'g'li</i> FUQAROLIK HUQUQIDA XIZMATLARNING HUQUQIY TABIATI: KONSALTING XIZMATLARI MISOLIDA.....	241-243
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> НЕСАНКЦИОНИРОВАННЫЙ ДОСТУП И ХИЩЕНИЕ ДЕНЕЖНЫХ СРЕДСТВ С ПЛАСТИКОВЫХ КАРТ: УГРОЗЫ, МОДЕЛИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ.....	244-253
<i>Хасанов Турсунпулат Шавкатжон угли</i> МЕЖДУ АЛГОРИТМОМ И ЗАКОНОМ: ПРОБЛЕМА ПРАВОВОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	254-259
<i>Kadirova Moxigul Xamitovna</i> ZAMONAVIY DAVLAT BOSHQARUVI VA ADOLATLI SUD-HUQUQ TIZIMI	260-262
<i>Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna</i> UCHINCHI RENESSANS SHAROITIDA VATANPARVARLIK G'OYASINING MA'NAVIY-HUQUQIY MOHIYATI (O'zbekiston tajribasi va xorijiy yondashuvlar qiyosida).....	263-269

<i>Shagilov Pulatbek Koptleuovich</i> JAMOAT XAVFSIZLIGIGA TAJOVUZ QILUVCHI HUQUQBUZARLIK LARGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLARINING TAJRIBASI TAXLILI	270-276
<i>Kubaeva Ismigul Farkhod qizi</i> PARTY AUTONOMY VS CONSUMER PROTECTION IN INTERNATIONAL E-COMMERCE: THE CASE OF UZBEKISTAN IN COMPARATIVE PERSPECTIVE	277-283
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> ПОНУЖДЕНИЕ ЛИЦА К ВСТУПЛЕНИЮ В ПОЛОВУЮ СВЯЗЬ: ПРАВОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ОБЪЕКТИВНОЙ СТОРОНЫ ПРЕСТУПЛЕНИЯ.....	284-295
<i>Toshpo'latov Islom Otavulla o'g'li</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KADRLAR BILAN ISHLASH SIYOSATIDA MA'NAVIY- MA'RIFIY ISHLAR VA UNI ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMIGA TA'SIRI	296-301
<i>Аллашова Шийринай Турсынбаевна, Каримова Мадина Мирзаджоновна</i> ВИКТИМНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ЖЕРТВ БЫТОВОЙ ПРЕСТУПНОСТИ И ЕГО ПРОФИЛАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ	302-307
<i>Lutfullayeva Feruza Boboqulovna</i> HUQUQIY DAVLAT KONSEPSIYASINING ZAMONAVIY NAZARIY YONDASHUVLARI	308-312
<i>Abdugaffarov Davronbek Dilshod o'g'li</i> SHARTNOMALARNI AMALGA OSHIRISH USTIDAN SAMARALI PARLAMENT NAZORATI: O'ZBEKISTONDA XALQARO TIJORAT SHARTNOMALARIDA TARAFLARNING ERK MUXTORIYATINI KUCHAYTIRISH.....	313-317
<i>Jalilov Ravshanjon Abdukayumovich</i> INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING NOQONUNIY AYLANMASI: JINOIY-HUQUQIY VA QIYOSIY TAHLIL	318-329
<i>Muxtorov Muhammad Amin Mirkomil o'g'li</i> MULK HUQUQINI MUHOFAZA QILISH ICHKI ISHLAR ORGANLARINING FAOLIYATI.....	330-337
<i>Karimov Ulugbek Hakimjonovich</i> LEGAL FOUNDATIONS OF PROSECUTORIAL SUPERVISION IN ENSURING THE ALLOCATION, USE, AND PROTECTION OF LAND PLOTS IN THE AGRARIAN SECTOR OF UZBEKISTAN	338-343
<i>Mirabdullayev Maqsudjon Mahmudjon o'g'li</i> MASHINALI O'QITISH USULLARI ASOSIDA XOSTNING XAVFSIZLIGINI BAHOLASH, MODEL VA ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH.....	344-349
<i>Utebaev Salamat Maqsetbay o'g'li, Dauletbaeva Aynur Baxramovna</i> OILAGA QARSHI JINOYATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING OLDINI OLISH.....	350-354
<i>Tillayev Ikrom Rustamjonovich</i> HUQUQBUZARLIK LAR PROFILAKTIKASINI BELGILAB BERUVCHI UMUMIY VA SOHAVIY-HUQUQIY HUIJATLAR TAHLILI	355-362
<i>Xoshimova Nilufar Zafarjon qizi</i> O'ZBEKISTONDA MEHNAT MUNOSABATLARIDA MIGRATSIYA MUNOSABATLARI.....	363-366

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Rahmonova Nilufar Najmiddin qizi BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI FORSAYT TADQIQOT METODLARI ASOSIDA KREATIV KOMPETENSIYALARI TA'LIM TRAYEKTORIYASINI TASHKIL ETISH	367-371
<i>Abdurasulova Dilrabo Tolkunjon qizi</i> KOMPARATIVISTIKISTIK YONDASHUV TALABALARNING MADANIYATLARARO KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSI SIFATIDA.....	372-380
<i>Таджиходжаева Эльвира Рашидовна</i> ЦИФРОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ НЕПРОФИЛЬНЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ.....	381-387
<i>Ravshanova Gulnoza Burxonovna</i> 5-SINF O'QUVCHILARINING ANTROPOMETRIK TOTAL KO'RSATKICHLARINI O'RGANISH BO'YICHA TADQIQOT BOSHIDA OLINGAN NATIJALAR TAHLILI.....	388-393
<i>Mirzaakhmedova Makhliyo Yuldashevna</i> THE IMPACT OF AUTHENTIC MATERIALS ON TEACHING BUSINESS WRITING SKILLS TO ESP STUDENTS	394-400

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

THE CONCEPT OF DIGITAL CULTURE AND ITS STAGES OF DEVELOPMENT

Sodiqov Islambek Otabek oğlu

doctoral student of National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Abstract. This article examines the concept of digital culture, its essence and content, as well as its role and significance in the life of individuals and society. The main content, structural components, and stages of development of digital culture formed as a result of the rapid advancement of digital technologies are analyzed. In addition, the article describes the processes from the era of computerization through internetization and social networks to the period of digital transformation. The results of this study contribute to increasing digital literacy, shaping responsible behavior in the virtual environment, and defining the role of digital culture in society.

Keywords: digital culture, social networks, technological processes, mobile devices, digital communication, media literacy.

RAQAMLI MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Sodiqov Islombek Otabek o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli madaniyat tushunchasi, uning mazmun mohiyati, shaxs va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida shakllangan raqamli madaniyatning asosiy mazmuni, tarkibiy jihatlari hamda rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada kompyuterlashtirish davridan boshlab internetlashuv, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli transformatsiya davrigacha bo'lgan jarayonlar bayon etilgan. Mazkur tadqiqot natijalari raqamli savodxonlikni oshirish va virtual muhitda mas'uliyatli xulq-atvorni shakllantirishga hamda uning jamiyatdagi o'rnini belgilab berishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: raqamli madaniyat, ijtimoiy tarmoqlar, texnologik jarayonlar, mobil qurilmalar, raqamli muloqot, media savodxonlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N22>

Hozirgi jamiyatda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi inson hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Natijada jamiyatda yangi madaniy muhit raqamli madaniyat shakllanmoqda. Raqamli madaniyat shaxsning raqamli texnologiyalar bilan ishlash jarayonida nafaqat texnik bilimga, balki axborotdan foydalanish, ongli muloqot va bu jarayonda axloqiy va ijtimoiy me'yorlarga rioya qilish jarayonidir.

Raqamli madaniyat paydo bo'lgandan beri quyidagi rivojlanish bosqichlarini o'z ichiga olgan:

Boshlang'ich bosqich (kompyuterlashtirish davri)

Bu davrda shaxsiy kompyuterlar va dastlabki axborot tizimlari paydo bo'ldi. Asosiy e'tibor texnik qurilmalarni o'zlashtirish va ulardan oddiy maqsadlarda foydalanishga qaratildi. Raqamli madaniyat hali to'liq shakllanmagan bo'lib, faqat texnologiyadan foydalanish darajasi bilan cheklangan davr hisoblanadi. Bu davr XX asrning ikkinchi yarmi, ayniqsa 1970–1990-

yillar oralig'ida boshlanib, axborotni qayta ishlash jarayonlariga elektron hisoblash mashinalarining joriy etilishi bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda shaxsiy kompyuterlar mavjud bo'lmagan, faqatgina tashkilotlar hamda ilmiy markazlar, davlat muassasasida kompyuterlar bo'lganligi bilan alohida e'tiborga molikdir. Kompyuterlashtirish davrining asosiy xususiyati texnologiyalarning jamiyat hayotiga asta-sekin kirib kelishi bo'lib, undan foydalanish ko'proq o'z ishining mutaxassislari doirasi bilan cheklangan edi. Birinchi avlod kompyuterlari katta hajmli, murakkab va qimmat bo'lib, ular asosan hisob-kitob, statistik tahlil maqsadida ishlatilgan. Shaxsiy kompyuterlarning paydo bo'lishi esa bu jarayonni yangi bosqichga olib chiqdi, yuqorida tilga olingan vazifalarni fuqarolarni o'zi amalga oshiradigan bo'ldi va bu hodisa jamiyat uchun muhim bir yuksalish bo'ldi.

Mazkur davrda raqamli madaniyat hali to'liq shakllanmagan bo'lsa-da, uning dastlabki elementlari vujudga kela boshladi. Jumladan, kompyuter savodxonligi tushunchasi paydo bo'lib, insonlarda texnik qurilmalar bilan ishlash, oddiy dasturlarni o'zlashtirish va elektron axborotni qayta ishlashga ehtiyoj yuzaga keldi [1, 197-204]. O'rganilgan ilmiy manbalar va tajribalar asosida aytish mumkinki, ta'lim tizimida informatika fanining joriy etilishi ham aynan shu bosqich bilan bog'liqdir. Shuningdek, kompyuterlashtirish davrida axborotga bo'lgan munosabat o'zgara boshladi. Axborot qog'oz shaklidan elektron shaklga o'ta boshladi, bu esa ma'lumotlarni saqlab qolish, muhim vaziyatlarda undan foydalanish va qayta ishlash jarayonlarini tezlashtirdi. Ammo har bir davrning o'z kamchiligi bo'lgani kabi, bu davrda hali axborot xavfsizligi, internetdan foydalanish savodxonligi va madaniyati, etikasi va raqamli huquqlar, majburiyatlar kabi masalalar dolzarb bo'lmagan.

Internetlashuv bosqichi

Internetning ommalashuvi bilan axborot almashinuvi tezlashdi. Elektron pochta, veb-saytlar va onlayn muloqot vositalari hayotimizga kirib keldi. Ushbu bosqichda raqamli madaniyat axborotni izlash, saralash va undan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liq bo'ldi. Ushbu bosqich asosan XX asr oxiri va XXI asr boshlariga to'g'ri kelib, jamiyat hayotining bir qancha turli sohalarida axborot almashinuvi jarayonlarini tubdan o'zgartirdi. Internet insonlar o'rtasidagi muloqot, bilim olish, axborot olish, saqlash, tarqatish va xizmatlardan foydalanish usullarini yangicha shaklga olib chiqdi. Mashhur sotsiolog Manuel Kastels ta'kidlashicha, internetlashuv bosqichida axborot tarmoqlari jamiyatning asosiy tuzilmasiga aylanib, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarning yangi shakllarini vujudga keltirdi [2, -B.469].

Bu davrda internet global axborot makoni sifatida shakllandi. Veb-saytlar, qidiruv tizimlari, elektron pochta va forumlar paydo bo'lib, foydalanuvchilarga cheksiz axborot manbalaridan foydalanish imkonini berdi. Buning natijasida axborotni tezkor izlash, olish va tarqatish kundalik ehtiyojga aylandi. Bizningcha, raqamli madaniyatning muhim tarkibiy qismi bo'lgan **raqamli savodxonlik** tushunchasi ham ayni shu davrda shakllandi. Foydalanuvchilar internetdan samarali foydalanish, ishonchli va ishonchsiz manbalarni farqlash, elektron muloqot qoidalariga rioya qilishni o'rganishga majbur bo'ldilar. Ta'lim tizimida masofaviy ta'lim elementlari, masofaviy darslar, elektron kutubxonalar, onlayn hukumat saytlari va resurslar keng joriy etildi. Bu bosqichda axborot xavfsizligi masalalari ham dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi. Shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash, kompyuter viruslari, spam xabarlar va kiberxavfsizlik bilan bog'liq muammolar yuzaga keldi. Bu esa, internetdan foydalanishda mas'uliyatli yondashuv va huquqiy me'yorlarga rioya qilish zaruratini paydo bo'ldi. Statistik

ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda internet global tarmog'idan milliardlab inson foydalanmoqda. Bu esa dunyo aholisining katta ko'pchiligini tashkil qiladi. Umuman olganda internetlashuv bosqichi raqamli madaniyatni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu davr insonlarning axborot bilan ishlash madaniyatini rivojlantirib, keyingi bosqichlar — ijtimoiy tarmoqlar va raqamli transformatsiya davri uchun mustahkam zamin yaratdi.

Ijtimoiy tarmoqlar va mobil texnologiyalar bosqichi

Insoniyat kishilik jamiyatining pog'onama-pog'ona rivojlangani kabi, internet ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish har doimgidanda muhim bosqichga chiqdi. Kishilar asosan vaqtini internet hamda mobil texnologiyalardan foydalanish bilan o'tkaza boshladi. Smartfonlar va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi natijasida raqamli madaniyat kundalik hayotning ajralmas qismiga aylandi. Bu davrda virtual muloqot madaniyati, onlayn shaxsiy imiji, axborot tarqatish mas'uliyati kabi masalalar dolzarb bo'lib qoldi. Bu davr XXI asrning birinchi o'n yilligidan boshlab jadal rivojlandi va shaxsiy qurilmalar hamda ijtimoiy media platformalarining keng tarqalishi bilan alohida ajralib turadi. Bu davrda raqamli axborot jamiyati tashkil qilinib, xalqaro aloqalar va shaxs dunyoqarashi birmuncha rivojlandi. Xususan, M. Castells o'z kitobida, "Ijtimoiy tarmoqlar va mobil texnologiyalar rivojlanishi jamiyatni raqamli axborot almashinuvi va global kommunikatsiya tarmog'iga birlashtirib, xalqaro aloqalar, madaniy o'zaro ta'sir va yangi raqamli madaniyat shakllanishiga erishdi", deya ta'kidlaydi [3].

Ijtimoiy tarmoqlar ommalashuvi ham bu davrning xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Aynan Facebook, Twitter, Instagram, Telegram kabi ijtimoiy platformalar foydalanuvchilarga muloqot qilish, ma'lumotlar almashish imkonini berdi. Bundan tashqari, onlayn hamjamiyatlar shakllanishi va virtual guruhlar faoliyatida ham muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Mobil texnologiyalar rivoji (smartfonlar, planshetlar va boshqa mobil qurilmalar axborotga kirishni yanada qulayroq qildi). Mobil internetning keng yoyilishi undan foydalanuvchilarining orasida axborot olish, tarqatish va xavfsizligini ta'minladi va vazifalarini osonlashtirdi. Ya'ni istalgan vaqtda, istalgan joyda axborot olishi, muloqot qilishi va xizmatlardan foydalanishi mumkin bo'ldi. Shaxsni ham identifikatsiyadan o'tkazish jarayoni ham ayni shu davrda sodir etildi.

Raqamli madaniyatning yangi jihatlari. Bu davrda raqamli madaniyat shunchaki texnologiyadan foydalanish emas, balki, virtual muloqot madaniyati, onlayn etikaga rioya qilish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, raqamli madaniyatdan brend yaratish kabi shaxsiy daromad olish kabi jihatlari ham o'rta qoldi. Onlayn tanqidiy fikrlash malaka va ko'nikmalari ham ushbu davrda ahamiyatli bo'lib qoldi.

Raqamli transformatsiya bosqichi.

Mazkur bosqich sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data) va raqamli iqtisodiyot bilan tavsiflanadi. Raqamli madaniyat endi professional faoliyat, ta'lim, davlat boshqaruvi va ijtimoiy munosabatlarning muhim tarkibiy qismiga aylandi. Ushbu davr XXI asrning o'rta yillaridan boshlab rivojlandi va raqamli texnologiyalar jamiyatning barcha sohalariga chuqur kirib bordi. Bu faqatgina shaxslar manfaati uchungina emas balki, jamiyat taraqqiyoti uchun ham ahamiyatli voqea bo'ldi.

Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (Big Data). Raqamli transformatsiya davrida sun'iy intellekt, ma'lumotlarni tahlil qilish vositalari va katta ma'lumotlar tizimlari rivojlandi. Ular

iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash va davlat boshqaruvida samarali qarorlar qabul qilish imkonini yaratdi. Xususan, davlat boshqaruvi faoliyatini tashkil etish, boshqarish yo'llari yanada osonlashdi. Avvallari biror ma'lumot olish uchun soatlab navbatda turish yo'q, hamma ma'lumotlar himoyalangan va xavfsizligi ta'minlangan holda bajariladigan bo'ldi.

Raqamli transformatsiya bu jamiyat va tashkilotlar faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ish uslublarini o'zgartirish, yangilash, boshqaruv samaradorligini oshirish va vaqt hamda resurslardan oqilona foydalanishga yo'naltirilgan uzluksiz jarayondir. Oddiy misol bilan aytganda, oldin ta'lim olishning faqatgina oflayn ko'rinishi bo'lsa, endilikda onlayn, masofaviy kabi ta'lim olish imkoni mavjud bo'ldi. Ya'ni shaxs qayerda va qanday holatda bo'lishidan qat'i-nazar uning uchun ta'lim olish imkoni yaratildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya bosqichi jamiyatni raqamli texnologiyalar bilan chuqur integratsiyalashgan tizimga aylantirdi. Bu davrda texnologiyalar nafaqat ish va ta'lim jarayonlarini osonlashtiradi, balki ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy faoliyatni ham tubdan o'zgartiradi. Shu sababli, raqamli transformatsiya raqamli madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishning eng yuqori darajasi sifatida qaraladi hamda shaxs va jamiyat boshqaruvi uchun ahamiyatga ega. Mazkur jarayonlar yurtimizda ham izchil amalga oshirilib, raqamli madaniyatni shakllantirish va raqamli iqtisodiyotga o'tishni jadallashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4851-sonli qarori (Mirziyoyev, 2020) bilan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi mamlakatda raqamlashtirish jarayonlarini tizimli tashkil qilishga xizmat qilmoqda. Bu strategiyada yosh avlodni raqamli texnologiyalar bilan qurollantirish, axborot texnologiyalari bo'yicha malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor yo'nalish sifatida belgilangani bejiz emas. Aynan shu yo'nalishda yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Masalan, "One Million Uzbek Coders" loyihasi doirasida o'n minglab yoshlar zamonaviy dasturlash, web-dizayn, mobil ilova yaratish kabi ko'nikmalarga ega bo'ldi. Bundan tashqari, Najot Ta'lim, PDP, IT-Parklar kabi markazlar orqali yoshlar IT sohasida bepul yoki imtiyozli ta'lim olishmoqda. Umumta'lim maktablari va texnikumlarda esa informatika va raqamli savodxonlik darslari takomillashtirilmoqda, ayrim maktablarda esa zamonaviy "IT sinf"lar tashkil etildi. "Har bir mahallaga – internet" dasturi orqali chekka hududlardagi yoshlar ham raqamli infratuzilmalardan foydalanish imkoniga ega bo'lmoqda. Ayniqsa, yangi kutubxonalar, Yoshlar markazlari va IT-inkubatorlarda tezkor internet, zamonaviy texnik vositalar hamda onlayn xizmatlardan foydalanish imkoniyati yoshlar o'rtasidagi raqamli tafovutni qisqartirishga xizmat qilmoqda.

O'rganishlar natijasiga ko'ra, raqamli madaniyat va uning rivojlanish bosqichlari har bir davrda shaxs va jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Jamiyatning qaysi bir sohasini olmag u siyosiy, ijtimoiy yoki madaniy soha bo'lsin yuqoridagi bosqichlardan o'tgan, va bu bosqichlarda har bir davrni rivojlantirib shakllanib boravergan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Bowen, J. P. (2016). Alan Turing: Virtuosity and visualisation. In J. P. Bowen, G. Diprose, & N. Lambert (eds.), *EVA London 2016 Conference Proceedings, Electronic Workshops in Computing* (eWiC), BCS, pages 197-204.
2. Castells M. *The Rise of the Network Society*. — Oxford: Blackwell Publishers, 1996. — P. 469.

3. Castells, M. *The Internet Galaxy: Reflections on the Internet, Business, and Society*. Oxford: Oxford University Press, 2001.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).